

NASAL ANGIOFIBROMA: KLINIK TASVIR VA DAVOLASH USULLARI

*2-kurs talabasi Axmadxonov Firdavsxon Eldorxon o`g`li
Ilmiy rahbar: Axatova Guljahon Xakimovna*

Toshkent shahridagi Kimyo xalqaro universiteti (KIUT), O`zbekiston

Annotatsiyasi: Nasal angiofibroma — bu asosan yosh erkaklarda uchraydigan, yuqori qon tomirli va lokal invaziv xususiyatga ega boʻlgan, burun va nasofaringeal hududda rivojlanadigan yaxshi sifatli oʻsma hisoblanadi. Kasallik odatda 10 - 25 yoshdagi erkaklarda koʻproq uchraydi. Bu kasallikning kelib chiqishi aniq oʻrganilmagan, lekin bu androgen garmonlarga bogʻliq degan taxmin bor, chunki ushbu kasallik koʻpincha pubertat davrdan boshlab rivojlanadi. Kasallikning asosiy klinik belgilari burundan qon ketishi baʼzan takroran qon oqishi kuzatilishi mumkin, burun obstruksiyasi, quloq bosimi va yuz sohasida shish paydo boʻlishi mumkin.

Maqsad: O`zbekiston Respublikasi miqyosida nasal angiofibromaning tahlili.

Tadqiqot materiali va metodlari: Toshkent Tibbiyot Akademiyasi va Respublika maxsus ilmiy-amaliy markazi.

Olingan natijalar: O`zbekiston Respublikasi Toshkent shahri miqyosida nasal angiofibroma boʻyicha bir nechta ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi va Respublika maxsus ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlarda 23 nafar erkak bemorlarning barchasiga endonazal endoskopik rezektsiya usuli qoʻllanilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, operatsiya muvaffaqiyatli oʻtkazilgan va faqat bitta bemorda 19 oy oʻtgach qaytalanish kuzatilgan.

Nasal angiofibromaning tashxisi uchun kompyuter tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) va angiografiya kabi usullar qoʻllaniladi.

Davolashning asosiy usuli — jarrohlik yoʻli bilan oʻsmanni olib tashlashdir. Endonazal endoskopik rezektsiya usuli, ayniqsa oʻsma kichik va lokalizatsiyalangan boʻlsa, samarali hisoblanadi. Biroq, oʻsma kattalashgan va atrofdagi toʻqimalarga tarqalgan boʻlsa, anʼanaviy jarrohlik usullari yoki radioterapiya qoʻllanilishi mumkin.

Xulosa: Nasal angiofibroma asosan androgen garmonlarga bogʻliqligi va faqat

erkaklarda aniqlanishi kuzatildi. Kasallikning erta aniqlanishi va davolanishi bemorning prognozini ijobiy ta'sir qiladi. Biroq, qaytalanish xavfi hali ham mavjud, shuning uchun muntazam tibbiy nazorat zarur.